

UDK 316; 911.3

Ahmadaliyev Yusuffjon Ismoilovich
*Farg'ona davlat universiteti professori
geografiya fanalari doktori*

Muxitdinov Ilhomjon Ixtiyor o'g'li
*Farg'ona davlat universiteti
tayanch doktoranti*

QASHSHOQLIK VA JINOYATCHILIK GEOGRAFIYASINING HUDUDIY BOG'LQLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyatchilikning hududiy tarqalishi va qashshoqlik darajasi o'rtasida bog'lqliklar mavjudligi taxlil qilingan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan jinoyatlar soni bilan qashshoqlik darajasi o'rtasidagi bog'lqlik statistik ma'lumotlar yordamida aniqlangan. Qashshoqlik darajasi muayan mintaqadagi barcha jinoyatlar dinamikasiga emas, balki mulkiy jinoyatlarga ko'proq ta'sir etishi misollar yordamida ohib berilgan.

Kalit so'zlar: qashshoqlik, jinoyatchilik, rivojlanayotgan mamlakatlar, daromad, giyohvandlik, milliy qashshoqlik darajasi, mulkka qarshi jinoyatlar.

Ahmadaliyev Y. I.

*Professor of Fergana State University
doctor of geography*

Mukhitdinov I. I.

*Fergana State University
PhD student of the Department of
Geography*

TERRITORIAL DEPENDENCE OF THE GEOGRAPHY OF POVERTY AND CRIME

Annotation: This article analyzes the existence of correlations between the territorial distribution of crime and the level of poverty. In developing countries, the relationship between the number of crimes per capita and the level of poverty has been determined using statistical data. It is revealed by means of

examples that the level of poverty has a greater influence on the dynamics of all crimes in a particular region, but on property crimes.

Key words: poverty, crime, developing countries, income, drugs, national poverty rate, property crimes.

Kirish: Butun kishilik jamiyati uchun xos bo‘lgan global muammolardan biri: jinoyat va qashshoqlik muammosidir. Bu muammo rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘z iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda rivojlanish yo‘lidagi eng katta to‘sinqlardan biri hisoblanadi. Kiyingi yillarda umumiy jinoyatlar kam rivojlangan, qashshoqlik darajasi yuqori bo‘lgan Afrika, Janubiy Amerika va Osiyo mintaqasi mamlakatlariga to‘g‘ri keladi[1].

Jaxonda jinoyatchilik ko‘rsatkichlari bilan qashshoqlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun dastlab jaxon mamlakatlarining qashshoqlik darajasi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Jahonda qashshoqlik darajasini aniqlashni keng tarqalgan uchta usuli amalyotda qo‘llanib kelinadi.

Birinchi usulda o‘rganilayotgan mamlakat aholisining necha foizi kunlik 1,25 dollardan kam daromadga ega (yalpi ichki mahsulotning xarid qobiliyatiga nisbatan) ekanligi o‘rganiladi. Ikkinci usulda aholining necha foizi milliy qashshoqlik chegarasidan pastda yashashi va uchinchi usulda suv sifati va suvgaga egalik qilish darajasi xisobga olinadi [1].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvand moddalar” va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha boshqarmasi” (UNODC) tomonidan jahonda jinoyatchilik va giyohvandlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar to‘plami nashr etiladi. Ushbu to‘plamga qotillik, talonchilik, o‘g‘irlik, zo‘rlash va umumiy jinoyat ko‘rsatkichlari kiritilib, ular taxlili natijasida jinoyatchilikka qarshi kurash usullari ishlab chiqiladi. Jinoyatni tahlil qilishda olinadigan, unig dinamikasiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar orasida qashshoqlik alohida o‘rin tutadi. Bizni mamlakatimizda da bu ko‘rsatkichni ko‘proq kambag‘allik iborasi bilan ifodalash keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Qashshoqlik va jinoyatchilikning o‘zaro bog‘liqligi Amerika Qo‘shma Shtatlarda ancha mukammal o‘rganilgan Jumladan, qashshoqlik darajasini jinoyatchilik bilan bog‘liqligi dastlab B.Taylor [4] tomonidan o‘rganilgan. J.Bush [6] esa AQSH daromadlar tengsizligini alohida e’tirof etib, vaqt seriyasi modelini ishlab chiqqan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, daromadlar tengsizligi barcha jinoyatlar uchun birdek tasir o‘tkazadi. Ushbu model Jini koeffitsienti asosida xisoblab chiqilgan (aholi, aholi zichligi, ishsizlik, demografik va daromadlar foizlari kiradi) AQShda Jini koeffitsienti 41,1 ni tashkil etadi, bu esa bunday rivojlangan iqtisodiyot uchun yuqori ko‘rsatkichdir. J.Bush AQShda daromadlar tengsizligining kuchayishini texnologik o‘zgarishlar, globallashuv, kasaba uyushmalarining tanazzulga uchrashi va eng kam ish haqi qiymatining pasayishi kabi omillar bilan bog‘laydi [6].

Shu o‘rinda Jini koeffitsenti nima yoki qanday yo‘nalishlar uchun xos degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi. Jini koeffitsienti daromadlar tengsizligini aniqlovchi keng tarqalgan o‘lchovidir, u mamlakat bo‘yicha butun daromad taqsimotini 0 dan 1 gacha bo‘lgan yagona raqamga qisqartiradi: bu raqam qanchalik katta bo‘lsa, daromadlar tengsizligi darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Jini indeksi 0% dan 100% gacha, 0% mukammal tenglikni va 100% mukammal tengsizlikni ifodalaydi. Jini koeffitsenti 0% dan 50% gacha bo‘lgan mamlakatlar odatda daromad adolatli taqsimlanmagan joy sifatida qabul qilinishi mumkin - dunyoning faqat 15 ta davlatida Jini 50% yoki undan ko‘p.

Jini indeksi yoki Jini koeffitsienti aholi o‘rtasida daromad taqsimotini o‘lchaydi. 1912-yilda italiyalik olim Korrado Jini tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ko‘pincha iqtisodiy tengsizlikni o‘lchaydi, daromad taqsimotini yoki kamdan-kam hollarda, aholi o‘rtasida boylik taqsimotini aniqlaydi.

Gini koeffitsientini Gini formulasi yordamida hisoblash mumkin: $G = ? (| Y \{i\} - y \{j\}|) / (2 * (n ^ 2) * \| y \|)$, bu erda $y \{k\}$ - bu uy daromadlarining

umumiylar daromaddagi ulushi, $\| y \|$ - uy xo‘jaliklari daromadlari ulushining o‘rtacha arifmetik qiymati. Birinchi yig‘ish belgisi i indeksiga $i = 1$ dan $i = n$ gacha, ikkinchisi (qavs ichida) - j indeksiga $j = 1$ dan $j = n$ gacha, bu erda n - Braun formulasida bo‘lgani kabi, uy xo‘jaliklarining soni. Jini koeffitsienti qancha past bo‘lsa, tanlangan hudud orasida tabaqalanish shunchalik kam bo‘ladi. Jini koeffitsientini nafaqat mamlakat balki mamuriy birliklar ichida xam hisoblash mumkin. Masalan, siz Jini koeffitsientini har xil aholi guruhlari - shahar va qishloq aholisi uchun hisoblappingiz mumkin; xususiy va davlat korxonalari xodimlari va boshqalar bir aholi uchun Gini koeffitsienti hisoblash shartlariga qarab farq qilishi mumkin.

Jini koeffitsienti 63,0 bo‘lgan Janubiy Afrika Respublikasi ayni paytda daromadlar tengsizligi eng yuqori bo‘lgan mamlakat sifatida tan olingan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu katta tengsizlikni irqiy, gender va geografik kamsitish bilan bog‘laydi, chunki Janubiy Afrikadagi oq tanli erkaklar va shahar ishchilari boshqalarga qaraganda ancha yaxshi maosh oladilar.

H.Mehlum va boshqalar [7] XIX-asrda Bavariyadagi qashshoqlik va jinoyatchilik oqibatlarini o‘rgangan. Ularning modeli qashshoqlikni belgilovchi omil sifatida ko‘proq qishloq xo‘jaligiga e’tibor qaratdi; o‘z modelida obekt sifatida yog‘ingarchilik va javdar narxlaridan foydalanganlar. Ular javdar narxining o‘zgarishi jinoyatchilik darajasiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga harakat qilingan. O‘sha paytda javdar ularning jamiyatida hozirgi sharoitga qaraganda muhimroq rol o‘ynagan. Yakuniy natijaga ko‘ra javdar narxi oshganda, mulkiy jinoyatlar darajasi ham oshgan. Bu ushbu davr uchun mulkiy jinoyatlar va inflyatsiya o‘rtasidagi ijobiy munosabatni ko‘rsatadi. Shaxsning real ish haqi kamaysa, ular muayyan jinoyatlarni sodir etish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Haqiqiy ish haqining pasayishi bilan qashshoqlik kuchayadi, va jinoyatlar sonining ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

Eronda keyingi to‘qqiz yil davomida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qashshoqlik va ayrim jinoyatlar o‘rtasida bog‘liqlik mavjud, ammo barcha jinoyatlar birdek emas degan xulosa berilgan (Haddad, G. Moghadam, M.) [2]. Uning tadqiqotida mulkka qarshi jinoyatlar, qotillik va o‘g‘irliklar ko‘rib chiqilgan. M.K.Moghadam iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar o‘g‘irliklarga ta’sir qiladi degan xulosaga kelishdi, ammo u olib borgan tadqiqodlar natijasida iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar qotillik darajasiga ta’sir etmaydi degan xulosaga bergen. Bu muhim tadqiqot edi, chunki u rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlik va jinoyatchilik o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi [2].

Eritreya davlatida, F.Eyob va M.Xarris [3] qashshoqlikning turli determinantlarini tahlil qildi va yakuniy natijalar qashshoqlik va jinoyatchilik o‘rtasida bog‘liqlik mavjud ekanligini isbotladi. Ularning modeli din, ta’lim, mehnat, oila kabi tavsiflovchi statistikani o‘z ichiga oladi. Jinoyatlarning sodir etilishiga ta’lim ham katta ta’sir etishi bayon qilingan bo‘lib, o‘rta va oily ta’lim ko‘rsatkichi yuqori xududlarda kiriminogen vaziyat nisbatan normal xolatda ekanligi, ta’lim darajasi past hududlarda mos ravishda kiriminogen vaziyat og‘ir ekanligi xulosa qilingan [3].

Asosiy qism: Keyingi yillarda dunyoning aksariyat mintaqalarda kambag‘allar soni kamayib qashshoqlik darajasi yaxshilanib bormoqda (Markaziy va g‘arbiy Afrika bundan mustasno). Qariyib 15-yil davomida bazi mintaqalarda 2 baravardan qolganlarida esa 3 baravargacha kambag‘allar sonining kamayishini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

2005-2015-yillar orasida bir meyorda qashshoqlik darajasi pasayib kelgan bo‘lsa, so‘ngi 5-yillikda ko‘rsatkichlar nisbatan yomonlashdi, bunga esa oziq ovqat maxsulotlari naxining keskin ko‘tarilishi, COVID-19 pandemiyasining kirib kelishi o‘z ta’sirini o‘tkazdi. 1-jadval ma’lumotlari taxlil qilinganda albatta o‘rinli savol tug‘uladi, qashshoqlik va jinoyatchilik o‘rtasida o‘zara bog‘liqlik

bo‘lsa, nega yuzida qashshoqlik darajasi yildan yilga kamayib borsada jinoyatlar soni ko‘payib borishi kuzatilmogda.

Bu holatga quydagilarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, qashshoqlik jinoyatning barcha sohalariga tasir ko‘rsatmaydi, asosan mulk bilan bog‘liq sodir etiladigan jinoyatlarga tasiri yuqori, o‘z navbatida BMTning 2022-yil hisobotida xam butun yer yuzida mulk bilan sodir etiladigan jinoyatlar kamayib bormoqda, ammo qotillik, kiber jinoyat va tovlamachik asosida sodir etiladigan jinoyatlar soni keskin oshib borishi ta’kidlangan, bu esa o‘z navbatida dunyo aholisining qashshoqlik darajasi pasayishi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, dunyo aholisi soni keskin oshib bormoqda bu esa ijtimoiy xodisa sifatida jinoyatlar sonining ko‘payishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

1-jadval

Dunyo mintaqalar bo‘yicha qashshoqlik darajasi (foiz va raqamlarda)

	Kambag‘allar soni (million)				Qashshoqlik darajasi (% umumiy aholiga nisbatan)			
	2005	2010	2015	2020	2005	2010	2015	2020
Sharqiy Osiyo	304.5	140.4	53.4	46.4	16.8%	7.4%	2.7%	2.4%
Yevropa va Markaziy Osiyo	16.0	8.4	4.3	3.9	3.4%	1.8%	0.9%	0.8%
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	45.0	35.0	27.3	27.1	8.4%	6.2%	4.5%	4.6%
Markaziy va g‘arbiy Afrika	379.5	369.9	349.9	351.4	54.5%	46.9%	39.3%	41.3%
Janubiy Osiyo	583.4	317.9	145.2	143.4	40.2%	20.3%	8.7%	9.6%
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	9.4	6.7	5.4	5.2	3.8%	2.5%	1.9%	1.7%

Jadval BMTning inson taraqqiyoti hisoboti 2022 (UN human development report 2022) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi [1].

Dunyo bo‘yicha qotillik darajasi taxlil qilinganda, bu ko‘rsatkich asosan rivojlangan malakatlarda hamda iqtisodiy rivojlangan hududlarda ko‘proq sodir bo‘lishi aniqlandi. Shimoliy Amerika mintaqasida joylashgan mamlakatlar, Janubiy Amerikada, Yevropada va Osiyoning Janubiy va Sharqiy qismlarida ko‘rsatkichlar juda yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ushbu sanab

o‘tilgan hududlarda sodir etiladigan qotillik jinoyati, umumiy jinoyatlar statistikasida ancha yuqori. Amerika Qo‘shma Shtatlari va Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan yoki dunyo bilan taqqoslanganda ko‘rsatkichlar juda yuqori, ablatta bu mamlakatlarda shaxsga qarshi jinoyatlar (qotillik) juda ko‘p lekin mulkka qarshi jinoyatlar yoki umumiy jinoyatlar soni nisbatan kam. Bu esa qashshoqlik darajasi yuqori mamlakatlarda mulkka qarshi jinoyatlarning shakillanishiga sabab bo‘lishi, aksincha rivojlangan mamlakatlarda qotillik va shaxsga qarshi jinoyatlar sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Har bir mamlakat aholisining necha foizi toza ichimlik suviga ega emasligi, yoki sifatli suvdan foydalanish darajasi o‘z navbatida qashshoqlik darajasini belgilashda asosiy omillardan biri sifatida ishtirok etadi. Ko‘plab statistic ma’lumotlar taxlil qilinganda yana bir bor asosiy e’tabor Afrika, Janubiy Amerika va Janubi-Sharqiy Osiyoga qaratilgan [8]. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Afrika mintaqasida, Kongo, Chad va Markaziy Afrika Respublikasi kabi mamlakatlarda kuzatiladi. Toza suvga ega bo‘lmaslik albatta qashshoqlikn keltirib chiqaradi bu esa o‘z navbatida jinoyatlar sonining ko‘payishiga olib kelmoqda. Qashshoq aholi o‘rtasida shaxsga qarshi jinoyatlar soni nisbatan kam lekin mulkka qarshi jinoyatlar soni qolgan aholi qatlamiga qaraganda 2 baravarga ko‘proq qayd etiladi. Toza suvga egalik qilish o‘z navbatida qashshoqlik darajasini o‘lchash uchun eng yaxshi usullardan biridir.

Sivilizatsiya boshlangandan beri jamiyatda qashshoqlik va jinoyatchilik muammosi mavjud. Ularning ikkalasi ham kamaytirilishi mumkin bo‘lgan, ammo butunlay bartaraf etish murakkab masala xisoblanadi. Butun dunyoda qashshoqlikn kamaytirish va bu bilan jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha katta sa’y-harakatlar amalga oshirildi va muayyan muvaffaqiyatga erishiladi. Dunyo bo‘ylab qashshoqlik darajasi hali ham yuqori bo‘lsada, so‘nggi yigirma yil

ichida bu ko‘rsatkichni kamayish kuziltilmoqda. Xuddi shu davrda jinoyatchilik darajasi ham odatdagidan pasayganligini e’tirof etish mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, qashshoqlik darajasi bilan jinoyatlarning ayrim turlari o‘rtasida o‘zaro korrilyatsion bog‘liqlik mavjud. Qashshoqlik darajasi yuqori bo‘lgan mintaqalar va mamlakatlar uchun ko‘proq mulkka qarshi jinoyatlar xosdir. Jini koefitsenti bo‘yicha daromadlar tengsizligi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan mintaqalarda mulkka qarshi jinoyatlar bilan kurashuvchi tashkilotlar faloiyatini yanada samarili yo‘lga qo‘yish, kuch va vositalarni qo‘sishimcha jalb qilish bu yo‘nalishda yaxshi natija berishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UN Human Development Report 2022. (BMT 2022 yilgi Inson taraqqiyoti hisoboti) <https://reliefweb.int/report/world/human-development-report-2022>
2. Haddad, Gholam Reza K., and Hamed M. Moghadam. "The Socioeconomic and Demographic Determinants of Crime in Iran (a Regional Panel Study)." European Journal of Law and Economics(2010). Print.
3. Fissuh, Eyob, and Mark Harris. MODELLING DETERMINANTS OF POVERTY IN ERITREA: A NEW APPROACH. 2004. Web. 4 Apr. 2011.
4. Taylor, Blake. "Poverty and Crime." Fundamental Finance. 2006. Web. 4 Apr. 2011. <http://economics.fundamentalfinance.com/povertycrime.php>
5. Anderson, Mark. The Effect of Poverty on Crime in South Africa:. 2007. Web. 4 Apr. 2011.
6. Brush, Jane. "Does Income Inequality Lead to More Crime (2007)
7. Melhum, Halvor, Edward Miguel, and Ragnar Torvik. "Poverty and Crime in 19th Century Germany." Journal of Urban Economics59 (2006)
8. World’s Water: the Biennial Report on Freshwater Resources, Populations Without Access to.

9. Richard A. Berk Departments of Criminology and Statistics Journal of the American Statistical Association 78.3811983)

10. Мухитдинов И.И. ЖИНОЯТЧИЛИК ГЕОГРАФИЯСИ: ШАКИЛЛАНИШ ТАРИХИ ВА ФАНЛАРАРО МОҲИЯТИ //Экономика и социум.2023.№4-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhinoyatchilik-geografiyasi-shakillanish-tarihi-va-fanlararo-mo-iyati> (дата обращения: 18.06.2023).

11. World Bank, Headcount Indices for the Developing World 2000-2015, February 2016.